



ACADEMIC SPECTRUM

3-Son (2026-yil, Mart)

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

BUXORO - 2026



ACADEMIC SPECTRUM

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

№3-Son (2026-yil, Mart)

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy
komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi
№1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan**



BOSH MUHARRIR:

Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A‘ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor
Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va
texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim
instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Eko Sri Margianti - Gunadarma universtiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor (Indoneziya).

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
(O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
ta‘limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O‘quv-uslubiy faoliyatni
takomillashtirish boshqarma boshlig‘i).

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrası mudiri).

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li - psixologiya fanlari doktori (DSc), (Buxoro
davlat universiteti “Psixologiya” kafedrası dotsenti).

Ganjiyev Feruz Furqatovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), (Buxoro
davlat universiteti “Psixologiya” kafedrası dotsenti).

Ismatova Dilafuz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrası dotsenti).

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar
kafedrası dotsenti).

Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrası dotsenti).

Mas‘ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahan Oybek o‘g‘li – Buxoro davlat universiteti
Psixologiya kafedrası o‘qituvchisi



EDITOR-IN-CHIEF:

Akhmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li

Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Kuleshov Valery Vladimirovich — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

Andrienko Elena Vasilyevna — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

Romm Tatyana Aleksandrovna — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

Eko Sri Margianti — Rector of Gunadarma University, Doctor of Economic Sciences, Professor (Indonesia).

Zarirov Lochin Rustamovich — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improving Educational and Methodological Activities).

Nazarov Akmal Mardonovich — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor, Head of the Department of Psychology, Bukhara State University.

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

Ganjiyev Feruz Furqatovich — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

Mukhlisov Sodiqjon Saidjonovich — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor, Department of Information Systems and Digital Technologies, Bukhara State University.

Tilavov Mukhtor Hasan o‘g‘li — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

EXECUTIVE SECRETARY:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

Ахмадов Назирджон Рахмат угли
доктор философии по психологии (PhD), доцент.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:

Кулешов Валерий Владимирович — доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

Андриенко Елена Васильевна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационного и технологического образования, г. Новосибирск, Россия).

Ромм Татьяна Александровна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарного и социального образования, г. Новосибирск, Россия).

Еко Sri Margianti — ректор Университета Гунадарма, доктор экономических наук, профессор (Индонезия).

Зариров Лочин Рустамович — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления по совершенствованию учебно-методической деятельности).

Назаров Акмал Мардонович — доктор психологических наук (DSc), профессор, заведующий кафедрой «Психология» Бухарского государственного университета.

Рустамов Шавкат Шухрат угли — доктор психологических наук (DSc), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Ганджиев Феруз Фуркатович — доктор психологических наук (DSc), доцент кафедры психологии Бухарского государственного университета

Исматова Дилафруз Туймуратовна — доктор философии по психологии (PhD), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Мухлисов Содикжон Саиджонович — доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент кафедры «Информационные системы и цифровые технологии» Бухарского государственного университета.

Тилавов Мухтор Хасан угли — доктор философии по психологии (PhD), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:

Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли — преподаватель кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

Jalilov Javohir Jamshid o'g'li

Buxoro davlat universiteti psixologiya ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

O'QUVCHILARDA KASB MOTIVATSIYASINING SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK OMILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarda kasb motivatsiyasining shakllanish jarayoni hamda unga ta'sir etuvchi psixologik va pedagogik omillar ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan. Shuningdek, shaxsning individual xususiyatlari, oila muhiti, ta'lim tizimi va ijtimoiy omillarning kasbiy yo'nalishga ta'siri yoritib berilgan. Bundan tashqari, maqolada o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini tizimli tashkil etish strategiyalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kasb motivatsiyasi, o'quvchi shaxsi, kasb tanlash, motivatsiya, kasbiy yo'naltirish, psixologik rivojlanish.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ У ОБУЧАЮЩИХСЯ

Аннотация. В данной статье научно-теоретически изучен процесс формирования профессиональной мотивации у учащихся и влияющие на него психологические и педагогические факторы. Также освещается влияние индивидуальных особенностей личности, семейной среды, системы образования и социальных факторов на профессиональную ориентацию. Кроме того, в статье анализируются стратегии системной организации профориентационной работы учащихся.

Ключевые слова: профессиональная мотивация, личность учащегося, выбор профессии, мотивация, профессиональная ориентация, психологическое развитие.

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF PROFESSIONAL MOTIVATION AMONG STUDENTS

Abstract. In this article, the process of forming professional motivation in students and the psychological and pedagogical factors influencing it are studied from a scientific and theoretical point of view. The influence of individual personality traits, family environment, education system, and social factors on professional orientation is also highlighted. In addition, the article analyzes the strategies for the systematic organization of career guidance for students.

Keywords: professional motivation, student personality, career choice, motivation, career guidance, psychological development.

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida yosh avlodning kasbiy o'zini aniqlashi jamiyat rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mehnat bozori talablarining tez o'zgarishi o'quvchilardan ongli kasb tanlashni, shaxsiy qobiliyat va qiziqishlariga mos yo'nalishni aniqlashni talab etmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'quvchilar kasbni mustaqil tanlashda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Kasb tanlash jarayoni oddiy qaror emas, balki murakkab psixologik jarayon bo'lib, unda motivatsiya asosiy rol o'ynaydi. Kasb motivatsiyasi — shaxsni muayyan kasbiy faoliyatni tanlash va egallashga undovchi ichki va tashqi omillar majmuasidir.

Mazkur maqolaning maqsadi — o'quvchilarda kasb motivatsiyasining shakllanishiga ta'sir qiluvchi psixologik-pedagogik omillarni keng tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Motivatsiya tushunchasi psixologiyada keng o'rganilgan. A. Maslou nazariyasiga ko'ra, inson faoliyati ehtiyojlar tizimi bilan belgilanadi. Yuqori bosqich ehtiyojlari — o'zini namoyon qilish va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish — kasb tanlash motivatsiyasining asosini tashkil etadi.

D. Makklelland motivatsiyani muvaffaqiyatga intilish, hokimiyatga intilish va ijtimoiy tegishlilik ehtiyojlari orqali tushuntiradi. Ayniqsa muvaffaqiyat motivi o'quvchilarning kelajak kasbiga bo'lgan munosabatini shakllantiradi.

L. S. Vigotskiy madaniy-tarixiy nazariyasida shaxs rivojlanishining ijtimoiy tabiatini asoslab, kasbiy qiziqishlar ham ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanishini ta'kidlaydi. A. N. Leontyev faoliyat nazariyasida motiv faoliyatning ichki harakatlantiruvchi kuchi sifatida izohlanadi.

Rus psixologi A.N. Leontev faoliyat nazariyasini ishlab chiqib, motivatsiyani shaxs faoliyatining asosiy ichki omili sifatida izohlaydi. Uning nazariyasiga ko'ra, har qanday faoliyat ma'lum bir motiv asosida amalga oshiriladi. O'quvchilarda kasbiy motivatsiya esa ularning ehtiyojlari, qiziqishlari va shaxsiy maqsadlari bilan bog'liq holda rivojlanadi. Leontyevning fikricha, o'quv jarayonida faoliyatga asoslangan yondashuvni qo'llash o'quvchilarda kasbga qiziqishni kuchaytiradi.

Rus psixologi L.S. Vigotskiy shaxs rivojlanishida motivatsiya muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi motiv hisoblanadi. Ta'lim jarayonida shakllangan qiziqish va ehtiyojlar o'quvchilarning kelajak kasb tanlashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Vigotskiy ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish orqali ularning kasbiy yo'nalganligini shakllantirish mumkinligini asoslab bergan.

Rus olimi S.L. Rubinshteyn shaxs va faoliyat birligi tamoyilini ilgari surgan. Unga ko'ra, shaxsning kasbga bo'lgan munosabati uning ichki psixologik xususiyatlari va tashqi ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi. Rubinshteyn ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, faolligi va tashabbuskorligini rivojlantirish kasbiy motivatsiyaning shakllanishiga yordam berishini ta'kidlaydi.

Kasb tanlash psixologiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan rus olimi E.A. Klimov kasbiy yo'nalganlikni shaxsning qobiliyatlari, qiziqishlari, temperament xususiyatlari va jamiyat ehtiyojlari bilan bog'liq holda izohlaydi. Uning fikricha, kasb tanlash jarayoni insonning individual psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu jarayonda o'quvchilarga to'g'ri kasbiy yo'naltirish berish muhim ahamiyatga ega.

Rus pedagog olimi A.K. Markova o'quv motivatsiyasining tuzilishi va rivojlanish mexanizmlarini o'rganib, o'quv faoliyatida bilish motivlari, ijtimoiy motivlar va kasbiy motivlar muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim jarayoni mazmunli, qiziqarli va amaliy jihatdan ahamiyatli bo'lsa, o'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqish va motivatsiya yanada kuchayadi.

Shunday qilib, rus olimlarining ilmiy qarashlariga ko'ra, o'quvchilarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishi shaxsiy qiziqishlar, qobiliyatlar, o'quv faoliyatining mazmuni, oila va ijtimoiy muhit hamda o'qituvchining pedagogik mahorati kabi psixologik-pedagogik omillar ta'sirida yuzaga keladi. Bu omillar o'quvchilarning kelajak kasbini ongli ravishda tanlashiga va o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholashiga yordam beradi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda kasb motivatsiyasi shaxsiy imkoniyatlar, ta'lim muhiti va jamiyat ehtiyojlari integratsiyasi sifatida qaraladi.

Muhokama. Kasb motivatsiyasining psixologik omillari sifatida quyidagi jihatlarni ko'rib chiqishimiz mumkin:

1. Shaxsiy qiziqishlar va individual xususiyatlar. Har bir o'quvchi o'ziga xos temperament, qobiliyat va qiziqishlarga ega. Qiziqish motivatsiyaning eng barqaror shakli hisoblanadi. Ichki motivatsiya asosida tanlangan kasbda shaxs yuqori natijalarga erishadi. O'zini anglash darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar kasb tanlashda mustaqil va ongli qaror qabul qiladilar.

2. O'zini baholash va motivatsiya. Adekvat o'zini baholash kasb motivatsiyasining muhim ko'rsatkichidir. Past o'zini baholash kasbiy ishonchsizlikni keltirib chiqaradi, yuqori darajadagi real baholash esa faol intilishni shakllantiradi.

3. Emotsional-barqarorlik. Stressga chidamlilik, qat'iyatlilik va mas'uliyat hissi kasbiy motivatsiyaning rivojlanishiga yordam beradi.

Kasb motivatsiyasining pedagogik omillari esa quyidagilar hisoblanadi:

1. Maktab muhitining roli. Ta'lim jarayonida kasbga yo'naltirish ishlari o'quvchilarning kelajak haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi. Psixologik testlar, kasb haftaliklari va amaliy uchrashuvlar motivatsiyani oshiradi.

2. O'qituvchi shaxsining ta'siri. O'qituvchi o'quvchi uchun ijtimoiy model hisoblanadi. Qo'llab-quvvatlovchi pedagogik muhit kasbiy o'zini aniqlashni tezlashtiradi.

3. Kasbiy maslahat va psixologik xizmat. Maktab psixologlari tomonidan olib boriladigan diagnostika ishlari o‘quvchilarning qobiliyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Ijtimoiy omillar sifatida oila kutishlari, jamiyatdagi kasb nufuzi, iqtisodiy sharoit, ommaviy axborot vositalari ko‘rishimiz mumkin. Ota-onaning haddan tashqari bosimi o‘quvchining ichki motivatsiyasini pasaytirishi mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kasb motivatsiyasi ko‘p omilli tizim hisoblanadi. Eng samarali natija oila–maktab–psixolog hamkorligi orqali erishiladi. Kasbga yo‘naltirish ishlari faqat bitiruv sinflarida emas, balki erta yoshdan boshlanishi lozim.

Xulosa. O‘quvchilarda kasb motivatsiyasi shaxsiy, pedagogik va ijtimoiy omillar o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. O‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini erta aniqlash, psixologik maslahat tizimini kuchaytirish hamda amaliy kasb tanishtirish dasturlarini joriy etish yoshlarning ongli kasb tanlashiga xizmat qiladi. O‘quvchilarda kasb motivatsiyasining shakllanishi masalasi ko‘plab rus psixolog va pedagog olimlari tomonidan ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Ularning fikricha, kasbiy motivatsiya shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari hamda ijtimoiy muhit ta’siri natijasida shakllanadigan murakkab psixologik jarayondir.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda kasb motivatsiyasining shakllanishi murakkab psixologik-pedagogik jarayon bo‘lib, u shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari hamda tashqi ijtimoiy muhit ta’siri ostida rivojlanadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash va kasblar haqida to‘g‘ri ma’lumot berish kasbiy motivatsiyani shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, o‘quv jarayonining mazmuni va metodlari, oila hamda jamiyatning ta’siri ham o‘quvchilarning kasb tanlash jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarda kasbga bo‘lgan ongli munosabatni shakllantirish uchun ta’lim jarayonida ularning mustaqil fikrlashi, faolligi va ijodkorligini rivojlantirish zarur.

Demak, o‘quvchilarda kasbiy motivatsiyani rivojlantirish uchun psixologik va pedagogik omillarni uyg‘un holda tashkil etish muhimdir. Bu esa o‘quvchilarning kelajak kasbini ongli ravishda tanlashiga, o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashiga hamda jamiyat uchun malakali mutaxassis bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maslow A. Motivation and Personality. — New York, 2000. — 145 p.
2. McClelland D. Human Motivation. — Cambridge, 1987. — 260 p.
3. Vigotskiy L. S. Psixik rivojlanishning madaniy-tarixiy nazariyasi. — Moskva, 1984. — 312 b.
4. Leontyev A. N. Faoliyat, ong va shaxs. — Moskva, 1975. — 148 b.
5. Bandura A. Social Learning Theory. — New York, 1977. — 210 p.

MUNDARIJA:

T/R	Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Bet
1	<i>AXMADOV NAZIRJON RAHMAT O'G'LI</i>	THE ROLE OF SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS IN SHAPING POSITIVE BEHAVIOR AMONG ADOLESCENTS	6
2	<i>SHAROPOVA MADINA OBID QIZI</i>	RAQAMLI QARAMLIK (SMARTFON, IJTIMOYIY TARMOQLAR) STRESSI VA IMMUNITET PASAYISHI	10
3	<i>SHAROPOVA ZARNIGOR OBID QIZI</i>		14
4	<i>RAJABOV RASULBEK SOBIR O'G'LI</i>	O'ZBEK OILASIDA MEHR, HURMAT VA MAS'ULIYAT KABI PSIXOLOGIK OMILLAR IJTIMOYIY BARQARORLIKNING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI	18
5	<i>MA'RUFJONOVA MARJONAXON ALISHER QIZI</i>	EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF NATIONAL RELIGIOUS VALUES IN TEACHING ENGLISH TO DIFFERENT AGE GROUPS	21
6	<i>BAHRONOVA IRODA OTABEK QIZI</i>	BOLALAR NUTQINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOYIY OMILLAR	24
7	<i>YOQUBOVA MAFTUNA SHOYIM QIZI</i>	BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARIDA DEONTOLOGIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	27
8	<i>RO'ZIQULOVA UMIDA AKBAR QIZI, TUROBOVA ZIYODA SHUHRAT QIZI</i>	MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTI TARBIYACHILARI HAMDA OTA-ONALAR MUNOSABATI ORASIDAGI NIZO VA YECHIMLAR	31
9	<i>JUMAYEV NODIR ZAYNITDINOVICH</i>	O'SMIRLARDA INTELLEKTUAL QOBILIYATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK JIHATLARI	51
10	<i>HAMROYEV TEMURBEK JAMSHID O'G'LI</i>	CHET ELGA MEHNAT MIGRATSIYASI KETGAN OTA-ONALARNING FARZANDLARIDA IJTIMOYIY MOSLASHUV JARAYONINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.	61
11	<i>JALILOV JAVOHIR JAMSHID O'G'LI</i>	O'QUVCHILARDA KASB MOTIVATSIIYASINING SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK OMILLARI	66

T/R	Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Bet
12	<i>SHAROPOV SUXROB SHODI O'G'LI</i>	O'SMIRLIK DAVRIDA REFLEKSIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING METAKOGNITIV MEXANIZMLARI	69
13	<i>YOQUBOV SODIQJON LATIF O'G'LI</i>	QARLUQ TIL BIRLIKLARI LEKSIKASINING LUG'AT FONDI VA LUG'AT TARKIBI	73
14	<i>OLIMOV LAZIZ YARASHOVICH</i>	SUD-PSIXOLOG EKSPERTI KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI	77
15	<i>RAJABOV ELSHOD ERKINOVICH</i>	‘ILTIFOT’ NUTQIY AKTINING BADIY MATNDA VOQELANISHINING FREYM MODEL T AHLILI	83
16	<i>NAZAROV ‘KMAL MARDONOVICH</i>	YOSHLAR PSIXOLOGIYASI VA MA‘NAVIY TARBIYA: INNOVATSION JAMIYATNI RIVOJLANTIRISHDA MA‘NAVIY QOBILIYATNI OSHIRISH YO‘LLARI	88
17	<i>RUST‘M‘V SH‘VK‘T SHUHR‘T ‘G‘LI</i>	TRANSFORMATSIYA JARAYONIDAGI TA‘LIM TIZIMIDA TALABALARNING ILMIY VA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI	94
18	<i>DEHQONBOYEV SHOHJAHON OYBEK O'G'LI</i>	SUD PSIXOLOGIK EKSPERTIZASIDA STRESS HOLATLARINI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH	101
19	<i>AXMEDOVA ZARINA RAHMAT QIZI</i>	LOYIHAVIY YONDASHUV ORQALI KELAJAK O‘QITUVCHILARNI FASILITATORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	108
20	<i>AXMEDOVA ZARRINA JAMILOVNA</i>	TALABALARNING DUAL TA‘LIM TIZIMIGA MOSLASHUVINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	117
21	<i>GANJIYEV FERUZ FURQATOVICH</i>	AGRESSIV O'SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARNI YUZAGA KELISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI	122
22	<i>HAMROYEV JASUR UMEDOVICH</i>	THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE STUDY OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MODERN YOUTH	126
23	<i>SHAROPOV SUXROB SHODI O'G'LI</i>	O'SMIR VA TALABA YOSHLARIDA ICHKI MOTIVATSIYA VA REFLEKSIV TAFAKKUR O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	130



T/R	Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Bet
24	<i>HAFIZOV DIYORBEK ZARIF O'G'LI</i>	BOLALAR VA AYOLLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK, PEDOFILIYA VA ERTA NIKOH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA HUQUQIY MEXANIZMLAR	136
25	<i>ASHRAPOV NODIRBEK NAMOZ O'G'LI</i>	SPECIFIC PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SOCIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF THE COGNITIVE SYSTEM OF ADOLESCENTS	140
26	<i>MURODOVA MADINA ATAJON QIZI</i>	IJTIMOYIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH, UYQU SIFATI VA TALABA QIZLAR PSIXOLOGIK HOLATI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	143
27	<i>ABDUVORISOVA MAFTUNAXON ABDUVOXID QIZI</i>	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI	147



Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrda №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy
Elektron manzil: <https://aspec.uz>
Telegram raqami: -998 (91) 245-46-66

“ACADEMIC SPECTRIUM” ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro, 2026 № - 3-Son (2026-yil, Mart)